O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI PEDAGOG KADRLARNI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISH MINTAQAVIY MARKAZI

# “ZAMONAVIY TA'LIMDA RAQAMLI TA'LIM TEXNOLOGIYALARINING AHAMIYATI”

## moduli bo‘yicha

# O‘QUV-USLUBIY MAJMUA

Buxoro – 2025

Modulning ishchi dasturi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 27-dekabrdagi 485-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan oliy ta'lim muassasalari pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malaka oshirish yo'nalishlari o'quv reja va dasturlariga muvofiq ishlab chiqilgan.


**Tuzuvchi:** **N.S.Sayidova** – Buxoro davlat universiteti, Axborot tizimlari va raqamli texnologiyalar kafedrasi dotsenti, f.-m.f.n.

**Taqrizchi:** **J.Jumayev** - Buxoro davlat universiteti "Amaliy matematika va dasturlash texnologiyalari" kafedrasi dotsenti, f.-m.f.n.



**O`quv-uslubiy majmua Buxoro davlat universiteti Ilmiy Kengashining qarori bilan nashrga tavsiya qilingan (2024 yil "27" dekabrdagi 5-sonli bayonnoma)**

## MUNDARIJA

I. ISHCHI DASTUR .................................... **Ошибка! Закладка не определена.**
II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTERFAOL TA’LIM METODLARI........................................................................................ 9
III. NAZARIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI ............................................ 13
IV. AMALIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI ............................................... 17
VI. GLOSSARIY ......................................................................................... 55
VII. ADABIYOTLAR RO‘YXATI ................................................................... 58

# I.ISHCHI DASTUR

## KIRISH

Ushbu ishchi dastur O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentabrda tasdiqlangan “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 3 dekabrdagi “Iqtidorli yoshlarni saralab olish tizimi va akademik litseylar faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4910-son hamda Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 1 iyundagi “Akademik litseylar rahbar va pedagog xodimlarining uzduksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi 296-son Qarorlarida belgilangan ustuvor yo‘nalishlar hamda namunaviy dastur mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo‘lib, u zamonaviy talablar asosida malaka oshirish jarayonlarining mazmunini takomillashtirish hamda akademik litseylar pedagog xodimlarining kasbiy kompetentligini muntazam oshirib borishni maqsad qiladi.

Ishchi dastur doirasida berilayotgan mavzular orqali akademik litseylarda faoliyat olib borayotgan zamonaviy ta'limda raqamli ta'lim texnologiyalarining ahamiyatiga oid bilimlar darajasini kengaytirish va chuqurlashtirish hisobiga ularning pedagogik mahorat va kasbiy kompetentligini muntazam takomillashtirish bilan bog‘liq bilim, ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lishlari ta’minlanadi.

### Modulning maqsadi va vazifalari

**Modulning** maqsadi tinglovchilarni zamonaviy axborot texnologiyalari texnik vositalari: multimedia proyektorlar, elektron doska, axborot-kommunikatsiya va interaktiv texnologiyalaridan foydalanish, internet ta’lim uchun web-maydonchalar: mustaqil ta’limning asosiy elementi sifatiga amal qilish bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malakalarini oshirishdan iborat.

**Modulning vazifalariga** quyidagilar kiradi:

- raqamli texnologiyalarni ta’lim jarayoniga joriy qilish bo‘yicha tinglovchilarning kasbiy bilim, ko‘nikma, malakalarini uzluksiz yangilash va rivojlantirish;
- audio va video materiallarini yaratish va ishlovlarini o‘zlashtirish;

- mazkur modulni o‘qitishdagi jaxon mamlakatlarida qo‘llanadigan tajribalarni o‘zlashtirish hamda ulardan o‘quv jarayonida samarali foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirish.

-

**Modul yakunida tinglovchilarning bilim, ko‘nikma va malakalari hamda kompetentligiga qo‘yiladigan talablar:**

**“Zamonaviy ta'limda raqamli ta'lim texnologiyalarining ahamiyati”** modulini o‘zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida:

**Tinglovchi:**

- zamonaviy axborot texnologiyalari texnik vositalarini;
- kompyuter grafikasiini;

zamonaviy axborot texnologiyalari texnik vositalari: multimedia proyektorlar, elektron doska, Smart mobil qurilmalar hamda ular bilan ishlash usul va vositalari, turli tizimli ilovalar tasnif va tavsifi, foydalanish tartibini;

axborotlarni himoyalashni ***bilishi*** kerak.

**Tinglovchi:**

- audio va video axborotlar bilan ishlash;
- internetda ta’lim to‘g‘risidagi ma’lumotlarni o‘rganish;
- Web -servislar, Web -sahifalar yaratishning dasturiy vositalarini
- Web –texnologiyalaridan foydalanish ***ko‘nikma va malakalariga*** ega bo‘lishi lozim.

**Tinglovchi:**

smart mobil qurilmalar yaratish;

video roliklar yaratish;

- informatika va axborot texnologiyalari fanlarini o‘qitishda o‘quv axborotini qayta ishlash;
- elektron darsliklar va ularni yaratish ***kompetensiyalariga*** ega bo‘lishi lozim.

## MODUL BO‘YICHA SOATLAR TAQSIMOTI

| | Modul mavzulari | Auditoriya o‘quv yuklamasi | | |
|---|---|---|---|---|
| | | Jami | Nazariy | Amaliy mashg‘ ulot |
| | Raqamli ta'lim texnologiyalari va ularning rivojlanish bosqichlari. Raqamli ta'limda platformalar va dasturiy vositalar | 2 | 2 | |
| | Google Classroom platformasidan foydalanish asoslari | 2 | | 2 |
| | Canva yordamida taqdimot va interfaol materiallar yaratish | 2 | | 2 |
| | **Jami:** | **6** | **2** | **4** |

## NAZARIY MASHG‘ULOT MAZMUNI

### 1-MAVZU: RAQAMLI TA'LIM TEXNOLOGIYALARI VA ULARNING RIVOJLANISH BOSQICHLARI. RAQAMLI TA'LIMDA PLATFORMALAR VA DASTURIY VOSITALAR (2 SOAT)

Raqamli ta'lim texnologiyalari. E-learning. Online Learning. Interfaol va adaptiv texnologiyalar. Raqamli ta'limning afzalliklari va kamchiliklari. Sun'iy intellekt. Virtual va kengaytirilgan haqiqat (VR/AR). Blokcheyn texnologiyasi.

O‘qitishda ishlatiladigan platformalar: Google Classroom, Moodle, Edmodo. Onlayn ta'lim uchun dasturlar: Cisco Webex , Microsoft Teams va Zoom. Raqamli resurs yaratish vositalari: Canva, Prezi va Powtoon. Raqamli baholash va test vositalari: Socrative, Kahoot va Quizlet.

## AMALIY MASHG‘ULOT MAZMUNI

### 1-amaliy mashg‘ulot: Google Classroom platformasidan foydalanish asoslari. (2 soat)

Google Classroom platformasiga kirish va sozlash. Kurs yaratish va tartibga solish. Talabalar bilan aloqa almashinuvini o’rnatish. Baholash va monitoring qilish tizimini yaratish.

### 2-amaliy mashg‘ulot: Canva yordamida taqdimot va interfaol materiallar yaratish. (2 soat)

Canva bilan tanishish, taqdimot va slaydlar yaratish. Interfaol vizual resurslar yaratish. Ish natijasini taqdim etish.

## ADABIYOTLAR RO‘YXATI

### I. Maxsus adabiyotlar

1. Alixonov S., Rayemov M. Informatika va axborot texnologiyalari o‘qitish metodikasi.-T.: Iktisod moliya, 2010.

2. Tojiyev M., Barakayev M., Xurramov A. Informatika va axborot texnologiyalari o‘qitish metodikasi. –T. “Fan va taraqqiyot”, 2017.- 324 b.

3. Tojiyev M., Mamadaliyev K. Informatika va axborot texnologiyalari o‘kitish jarayonini loyixalash. O‘kuv qo‘llanma. –T.: Fan va texnologiyalar, 2013.- 169 b.

4. Yunusova D.I. Informatika va axborot texnologiyalarini o‘qitishning zamonaviy texnologiyalari. –T.: Fan va texnologiyalar. 2011 y. 2000 b.

5. Ignatova N. Y. Obrazovaniye v sifrovuyu epoxu: monografiya. M-vo obrazovaniya i nauki RF. – Nijniy Tagil: NTI (filial) UrFU, 2017. – 128 s. http://elar.urfu.ru/bitstream/10995/54216/1/978-5-9544-0083-0_2017.pdf

6. Moodle LMS tizimida masofaviy kurslar yaratish. O‘quv-uslubiy qo‘llanma. – T.: Toshkent farmatsevtika instituti, 2017.

7. Tursunov S.Q. Ta’limda elektron axborot resurslarini yaratish va ularni joriy qilishning metodik asoslari. Monografiya. -T.: Adabiyot uchqunlari, 2018.

8.Elektron ta’lim bo‘yicha Xamidov V.S.ning shaxsiy blogi http://elearning.zn.uz/

9.Kaatrakoski H., Littlejohn A., Hood N. Learning challenges in higher education: an analysis of contradictions within Open Educational Practice // Higher Education. – 2017. – Vol. 74, Issue 4. – P.599–615. DOI: http://doi.org/10.1007/s10734-016-0067-z

10.Кречетников К. Г. Социальные сетевые сервисы в образовании / Кречетников К. Г., Кречетникова И. В. / Тихоокеанский военно-морской институт имени Макарова С.О. – http://ido.tsu.ru/other_res/pdf/3(39)_45.pdf

11.Nurmuxamedov G.N. Elektronniye uchebniye kursi: potrebnosti obrazovaniya, proyektirovaniye, razrabotka, problemi i perspektivi //Informatika i obrazovaniye.-2012.-№1.

12.Means, B., Toyama, Y., Murphy, R., Bakia, M., & Jones, K. (2010, September). Evaluation of Evidence-Based Practices in Online Learning: A Meta-Analysis and Review of Online Learning Studies.

13. Tolametov A.A., Maxarov T.A. Interaktiv topshiriqlar, testlar, krossvordlar yaratishda «Hot Potatoes» dasturidan foydalanish. /O‘qituvchilar uchun uslubiy qo‘llanma. –T.:“LidirPress”. 2019. 3,5 b.t.

**IV. Internet saytlar**

14. http://edu.uz

15. http:// www.mitc.uz

16. http://lex.uz

17. http://bimm.uz

18.http://ziyonet.uz

19.http://edtek.ru/kurs/luchshiy-onlayn-kurs-razmeshchennyy-na-obrazovatelnoy platforme/mook-tekhnologiya-sozdaniya-uchebnogo-videokontenta/-MOOC: технология создания учебного контента.

20.https://www.litres.ru/1ps-ru/smm-dlya-novichkov.

21.https://zillya.ua/ru/check-password.

## II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTREFAOL TA’LIM METODLARI

**“KICHIK GURUHLARDA ISHLASH” METODI** - ta’lim oluvchilarni faollashtirish maqsadida ularni kichik guruhlarga ajratgan holda o‘quv materialini o‘rganish yoki berilgan topshiriqni bajarishga qaratilgan darsdagi ijodiy ish. Ushbu metod qo‘llanilganda ta’lim oluvchi kichik guruhlarda ishlab, darsda faol ishtirok etish huquqiga, boshlovchi rolida bo‘lishga, bir-biridan o‘rganishga va turli nuqtai- nazarlarni qadrlash imkoniga ega bo‘ladi. “Kichik guruhlarda ishlash” metodi qo‘llanilganda ta’lim beruvchi boshqa interfaol metodlarga qaraganda vaqtni tejash imkoniyatiga ega bo‘ladi. Chunki ta’lim beruvchi bir vaqtning o‘zida barcha ta’lim oluvchilarni mavzuga jalb eta oladi va baholay oladi. Quyida “Kichik guruhlarda ishlash” metodining tuzilmasi keltirilgan




**“Kichik guruhlarda ishlash” metodining tuzilmasi**

**“Kichik guruhlarda ishlash” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:**

1. Faoliyat yo‘nalishi aniqlanadi. Mavzu bo‘yicha bir-biriga bog‘liq bo‘lgan masalalar belgilanadi.
2. Kichik guruhlar belgilanadi. Ta’lim oluvchilar guruhlarga 3-6 kishidan bo‘linishlari mumkin.
3. Kichik guruhlar topshiriqni bajarishga kirishadilar.
4. Ta’lim beruvchi tomonidan aniq ko‘rsatmalar beriladi va yo‘naltirib turiladi.
5. Kichik guruhlar taqdimot qiladilar.
6. Bajarilgan topshiriqlar muhokama va tahlil qilinadi.

7. Kichik guruhlar baholanadi.

**«Kichik guruhlarda ishlash» metodining afzalligi:**

- o‘qitish mazmunini yaxshi o‘zlashtirishga olib keladi;
- muloqotga kirishish ko‘nikmasining takomillashishiga olib keladi;
- vaqtni tejash imkoniyati mavjud;
- barcha ta’lim oluvchilar jalb etiladi;
- o‘z-o‘zini va guruhlararo baholash imkoniyati mavjud bo‘ladi.

**«Kichik guruhlarda ishlash» metodining kamchiliklari:**

- ba’zi kichik guruhlarda kuchsiz ta’lim oluvchilar bo‘lganligi sababli kuchli ta’lim oluvchilarning ham past baho olish ehtimoli bor;
- barcha ta’lim oluvchilarni nazorat qilish imkoniyati past bo‘ladi;
- guruhlararo o‘zaro salbiy raqobatlar paydo bo‘lib qolishi mumkin;
- guruh ichida o‘zaro nizo paydo bo‘lishi mumkin.

**“DAVRA SUHBATI” METODI** – aylana stol atrofida berilgan muammo yoki savollar yuzasidan ta’lim oluvchilar tomonidan o‘z fikr-mulohazalarini bildirish orqali olib boriladigan o‘qitish metodidir.

“Davra suhbati” metodi qo‘llanilganda stol-stullarni doira shaklida joylashtirish kerak. Bu har bir ta’lim oluvchining bir-biri bilan “ko‘z aloqasi”ni o‘rnatib turishiga yordam beradi. Davra suhbatining og‘zaki va yozma shakllari mavjuddir. Og‘zaki davra suhbatida ta’lim beruvchi mavzuni boshlab beradi va ta’lim oluvchilardan ushbu savol bo‘yicha o‘z fikr-mulohazalarini bildirishlarini so‘raydi va aylana bo‘ylab har bir ta’lim oluvchi o‘z fikr-mulohazalarini og‘zaki bayon etadilar. So‘zlayotgan ta’lim oluvchini barcha diqqat bilan tinglaydi, agar muhokama qilish lozim bo‘lsa, barcha fikr-mulohazalar tinglanib bo‘lingandan so‘ng muhokama qilinadi. Bu esa ta’lim oluvchilarning mustaqil fikrlashiga va nutq madaniyatining rivojlanishiga yordam beradi. Quyida “Davra suhbati” metodining tuzilmasi keltirilgan

**“ISHBOP O‘YIN” METODI** - berilgan topshiriqlarga ko‘ra yoki o‘yin ishtirokchilari tomonidan tayyorlangan har xil vaziyatdagi boshqaruvchilik qarorlarini qabul qilishni imitatsiya qilish (taqlid, aks ettirish) metodi hisoblanadi. O‘yin faoliyati biron bir tashkilot vakili sifatida ishtirok etayotgan ishtirokchining hulq-atvori va ijtimoiy vazifalarini imitatsiya qilish orqali beriladi. Bir tomondan o‘yin nazorat qilinsa, ikkinchi tomondan oraliq natijalarga ko‘ra ishtirokchilar o‘z faoliyatlarini o‘zgartirish imkoniyatiga ham ega bo‘ladi. Ishbop o‘yinda rollar va rollarning maqsadi aralashgan holda bo‘ladi. Ishtirokchilarning bir qismi qat’iy belgilangan va o‘yin davomida o‘zgarmas rolni ijro etishlari lozim. Bir qism ishtirokchilar rollarini shaxsiy tajribalari

va bilimlari asosida o‘z maqsadlarini belgilaydilar. Ishbop o‘yinda har bir ishtirokchi alohida rolli maqsadni bajarishi kerak. Shuning uchun vazifani bajarish jarayoni individual-guruhli harakterga ega. Quyida “Ishbop o‘yin” metodining tuzilmasi keltirilgan.




**“ROLLI O‘YIN” METODI** - ta’lim oluvchilar tomonidan hayotiyvaziyatning har xil shart-sharoitlarini sahnalashtirish orqali ko‘rsatib beruvchi metoddir.

Rolli o‘yinlarning ishbop o‘yinlardan farqli tomoni baholashning

olib borilmasligidadir. Shu bilan birga “Rolli o‘yin” metodida ta’lim oluvchilar ta’lim beruvchi tomonidan ishlab chiqilgan ssenariydagi rollarni ijro etish bilan kifoyalanishsa, “Ishbop o‘yin” metodida rol ijro etuvchilar ma’lum vaziyatda qanday vazifalarni bajarish lozimligini mustaqil ravishda o‘zlari hal etadilar.

Rolli o‘yinda ham ishbop o‘yin kabi muammoni yechish bo‘yichaishtirokchilarning birgalikda faol ish olib borishlari yo‘lga qo‘yilgan. Rolli o‘yinlar ta’lim oluvchilarda shaxslararo muomala malakasini shakllantiradi.

“Rolli o‘yin” metodida ta’lim beruvchi ta’lim oluvchilar haqida oldindan ma’lumotga ega bo‘lishi lozim. Chunki rollarni o‘ynashda har bir ta’lim oluvchining individual xarakteri, xulq-atvori muhim ahamiyat kasb etadi. Tanlangan mavzular ta’lim oluvchilarning o‘zlashtirish darajasiga mos kelishi kerak. Rolli o‘yinlar o‘quv jarayonida ta’lim oluvchilarda motivatsiyani shakllantirishga yordam beradi. Quyida “Rolli o‘yin”metodining tuzilmasi keltirilgan.

**“Rolli o‘yin” metodining tuzilmasi**

**“Rolli o‘yin” metodining bosqichlari quyidagilardan iborat:**

1. Ta’lim beruvchi mavzu bo‘yicha o‘yinning maqsad va natijalarini belgilaydi hamda rolli o‘yin ssenariysini ishlab chiqadi.
2. O‘yinning maqsad va vazifalari tushuntiriladi.
3. O‘yinning maqsadidan kelib chiqib, rollarni taqsimlaydi.

4. Ta’lim oluvchilar o‘z rollarini ijro etadilar. Boshqa ta’lim oluvchilar ularni kuzatib turadilar.

5. O‘yin yakunida ta’lim oluvchilardan ular ijro etgan rolni yana qanday ijro etish mumkinligini izohlashga imkoniyat beriladi. Kuzatuvchi bo‘lgan ta’lim oluvchilar o‘z yakuniy mulohazalarini bildiradilar va o‘yinga xulosa qilinadi.

**“BAHS-MUNOZARA” METODI** - biror mavzu bo‘yicha ta’lim oluvchilar bilan o‘zaro bahs, fikr almashinuv tarzida o‘tkaziladigan o‘qitish metodidir.

Har qanday mavzu va muammolar mavjud bilimlar va tajribalar asosida muhokama qilinishi nazarda tutilgan holda ushbu metod qo‘llaniladi. Bahs-munozarani boshqarib borish vazifasini ta’lim oluvchilarning biriga topshirishi yoki ta’lim beruvchining o‘zi olib borishi mumkin. Bahs-munozarani erkin holatda olib borish va har bir ta’lim oluvchini munozaraga jalb etishga harakat qilish lozim. Ushbu metod olib borilayotganda ta’lim oluvchilar orasida paydo bo‘ladigan nizolarni darhol bartaraf etishga harakat qilish kerak.

“Bahs-munozara” metodinio‘tkazishdaquyidagiqoidalargaamalqilishkerak:

✓ barchata’limoluvchilarishtiroketishiuchunimkoniyatyaratish;

✓ “o‘ng qo‘l” qoidasi (qo‘lini ko‘tarib, ruhsat olgandan so‘ng so‘zlash)ga rioya qilish;

✓ fikr-g‘oyalarni tinglash madaniyati;

✓ bildirilgan fikr-g‘oyalarning takrorlanmasligi;

✓ bir-birlariga o‘zaro hurmat.

**Quyida “Bahs-munozara” metodini o‘tkazish tuzilmasi berilgan**.



# III. NAZARIY MASHG’ULOT MATERIALLARI

## 1-ma’ruza

Raqamli texnologiyalar ta’lim sohasida katta ahamiyat kasb etmoqda. Ular o‘qitish jarayonlarini modernizatsiya qilish, o‘quvchilarning ishtirokini kuzatish va ta’lim sifatini yaxshilashda muhim rol o‘ynaydi. Raqamli vositalar yordamida ta’lim tizimini monitoring qilish ta’lim jarayonlarini aniq va samarali boshqarishga imkon beradi.

Bugungi kunga kelib ta’lim tizimida raqamli texnologiyalarning roli beqiyos ekanligini rad etib bo‘lmaydi. Raqamli texnologiyalar yordamida ta’lim jarayonlarini monitoring qilish nafaqat o‘qitish sifatini oshirishga, balki ta’limning umumiy samaradorligini ham sezilarli darajada yaxshilashga imkon beradi. Ta’lim tizimida sun’iy intellekt (AI), katta ma’lumotlar (Big Data), buyumlar interneti (IoT) va virtual reallik (VR) kabi ilg‘or texnologiyalarning qo‘llanilishi so‘nggi yillarda jadal rivojlanmoqda va bu texnologiyalar ta’lim jarayonida yangi imkoniyatlar eshigini ochmoqda.

Ta’lim tizimini monitoring qilishda qo‘llaniladigan raqamli texnologiyalar

| Texnologiyalar | Tavsifi | Qo‘llanilishi |
|---|---|---|
| **Sun’iy Intellekt (AI)** | Sun’iy intellekt texnologiyalari ta’lim jarayonida avtomatizatsiya va shaxsiylashtirish imkoniyatlarini taqdim etadi. AI yordamida o‘quvchilar xatti-harakatlarini kuzatish, baholash va natijalarni tahlil qilish osonlashadi. | *Baholash tizimlari*: AI asosida insholarni va testlarni baholash tizimlarini qo‘llash.<br>*O‘quv platformalari:* Shaxsiylashtirilgan o‘quv rejalarini yaratish va talabalarning o‘rganish jarayonini kuzatish. |
| **Katta Ma’lumotlar (Big Data)** | Katta ma’lumotlar texnologiyalari katta hajmdagi ma’lumotlarni yig‘ish, saqlash va tahlil qilish imkonini beradi.<br>Bu texnologiya o‘quv jarayonidagi turli ma’lumotlarni tahlil qilishda qo‘llaniladi. | O‘quvchilarning xulq-atvorini tahlil qilish: Talabalarning o‘quv faoliyatini tahlil qilish orqali shaxsiylashtirilgan ta’lim rejalarini yaratish.<br>Ta’lim jarayonini optimallashtirish: O‘quv jarayonidagi kuchli va zaif tomonlarni aniqlash va ularga mos ravishda ta’lim strategiyalarini ishlab chiqish. |

| | | |
|---|---|---|
| **Buyumlar interneti (IoT)** | IoT texnologiyalari turli qurilmalar va sensorlar yordamida ma’lumotlarni real vaqt rejimida yig‘ish va uzatish imkoniyatini beradi. | Sinf xonalarining aqlli boshqaruvi: IoT yordamida sinf xonalarining harorat, yorug‘lik va havo sifatini monitoring qilish va boshqarish. O‘quvchilar qatnashishini kuzatish: IoT qurilmalari yordamida o‘quvchilarning darsga qatnashishini kuzatish. |
| **Virtual reallik (VR)** | Virtual reallik texnologiyalari o‘quvchilarga real hayotdagi muhitlarni virtual tarzda tajribadan o‘tkazish imkoniyatini beradi. | Interaktiv o‘quv muhitlari: Tarixiy joylar yoki ilmiy laboratoriyalarni virtual reallik orqali o‘rganish. Amaliy tajribalar: Tibbiyot, arxitektura va boshqa sohalarda VR yordamida amaliy tajribalar o‘tkazish. |
| **Gibrid ta’lim platformalari (Blended learning)** | An’anaviy va raqamli ta’limni birlashtirgan o‘quv platformalari o‘quvchilarning shaxsiy ehtiyojlariga moslashtirilgan ta’lim olish imkoniyatini beradi. | Onlayn va an’anaviy darslarni birlashtirish: Blended learning platformalari yordamida talabalarning o‘qish natijalari oshiriladi va ta’lim jarayoni shaxsiylashtiriladi. Moslashuvchan ta’lim: O‘quvchilar darslarni onlayn rejimda va sinf xonasida o‘rganish imkoniyatiga ega bo‘ladi. |

Ta’lim tizimini raqamli texnologiyalar yordamida monitoring qilish orqali quyidagi iqtisodiy samaradorlikka erishiladi:

1. Vaqtni tejash - O‘qituvchilar avtomatik tahlil va monitoring tizimlari yordamida talabalarning faoliyatini kuzatish orqali o‘z vaqtlarini tejashlari mumkin. Bu o‘qituvchilarga boshqa muhim ta’lim vazifalariga e’tibor qaratish imkonini beradi.
2. Resurslarni optimal taqsimlash - Katta ma’lumotlar va AI yordamida tahlil qilish orqali ta’lim resurslarini samarali taqsimlash mumkin. Bu ta’lim tizimining umumiy samaradorligini oshiradi.
3. O‘quv natijalarini yaxshilash - Shaxsiylashtirilgan o‘qitish va real vaqt monitoringi orqali talabalarning o‘quv natijalari yaxshilanadi, bu esa umumiy ta’lim sifatini oshiradi.
4. Ta’lim xarajatlarini kamaytirish - Masofaviy ta’lim va avtomatik monitoring tizimlari yordamida ta’lim xarajatlarini kamaytirish mumkin. Bu maktablar va universitetlarga iqtisodiy foyda keltiradi.

Raqamli texnologiyalar yordamida ta’lim tizimini monitoring qilish ta’lim jarayonini yanada samarali, shaxsiylashtirilgan va qiziqarli qilishda katta rol o‘ynaydi. Ushbu texnologiyalarni ta’lim tizimiga joriy etish orqali nafaqat ta’lim sifatini oshirish, balki

talabalarning o‘qishga bo‘lgan qiziqishini ham oshirish mumkin. 1-rasmda ta’lim tizimini raqamli texnologiyalar yordamida monitoring qilishning asosiy afzalliklari keltirilgan.




**1-rasm. Ta’lim sohasini raqamli texnologiyalar yordamida monitoring qilishning afzalliklari**

O‘zbekistonda raqamli texnologiyalarni ta’lim tizimida qo‘llash bo‘yicha ham bir qancha ustuvor vazifalar bajarilgan. Jumladan, talaba va o‘quvchilarni Face ID ya’ni

yuz orqali tanib olish texnologiyasi qo‘llanilib keng joriy etilmoqda. U yordamida talabalarning davomati qog‘ozdan voz kechilgan holda, avtomatik elektron shaklda o‘tkaziladi.

Ta’lim tizimini monitoring qilishda yuqoridagi raqamli texnologiyalardan tashqari Learning Management Systems (LMS) ya’ni Ta’limni boshqarish tizimlari (TBT)ni ham misol keltirish mumkin. Ta’limni boshqarish tizimlari ta’lim jarayonini boshqarish va monitoring qilish uchun ishlatiladi. Bu platformalar o‘qituvchilarga darslarni rejalashtirish, materiallarni yuklash va o‘quvchilarning ishtirokini kuzatish imkonini beradi.




**1-rasm. Ta’limni boshqarish tizimi (TBT)ning asosiy komponentlari**[3]

***01. Ta’lim jarayonini boshqarish*** – TBT orqali ta’lim jarayonini boshqarishni anglatadi. U darslar rejalashtirish, materiallarni tarqatish va topshiriqlarni nazorat qilish imkoniyatlarini o‘z ichiga oladi.

***02. O‘quv materiallari*** – TBTda saqlanadigan va tarqatiladigan o‘quv materiallarini ifodalaydi. Bu hujjatlar, videolar, prezentatsiyalar va boshqa ta’lim resurslarini o‘z ichiga oladi.

***03. Ta’lim natijalarini baholash*** – TBT orqali o‘quvchilarning natijalarini baholash jarayonini anglatadi. U testlar, topshiriqlar va boshqa baholash vositalarini o‘z ichiga oladi.

***04. O‘quvchilar bilan aloqa*** – Bu komponent TBT orqali o‘quvchilar bilan aloqa qilish va muloqot qilish imkoniyatlarini ifodalaydi. Bu forumlar, chatlar va xabarlar tizimini o‘z ichiga oladi.

***05. Kuzatuv va tahlil*** – TBT orqali ta’lim jarayonini kuzatish va tahlil qilishni anglatadi. Bu hisobotlar, statistika va boshqa tahlil vositalarini o‘z ichiga oladi.

***Xarajatlarni optimizatsiya qilish*** – TBT orqali ta’lim jarayonidagi xarajatlarni optimallashtirishni ifodalaydi. Bu resurslarni samarali boshqarish va tejamkorlikni o‘z ichiga oladi.

Yuqorida sanab o‘tilgan oltita komponent Ta’limni boshqarish tizimining tashkil etuvchi asosiy bo‘limlari hisoblanib, har bir komponent TBTning ta’lim jarayonini samarali boshqarish va optimallashtirishdagi muhim jihatlarini ifodalaydi.

## Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Bond, M.; Buntins, K.; Bedenlier, S.; Zawacki-Richter, O.; Kerres, M. Mapping Research in Student Engagement and Educational Technology in Higher Education: A Systematic Evidence Map. Int. J. Educ. Technol. High. Educ. 2020, 17, 2. [Google Scholar] [CrossRef]

2. Guan, C.; Mou, J.; Jiang, Z. Artificial Intelligence Innovation in Education: A Twenty-Year Data-Driven Historical Analysis. Int. J. Innov. Stud. 2020, 4, 134–147. [Google Scholar] [CrossRef]

3. Usmonov Botir: "Higher Education in Uzbekistan: Transition to Digital Learning" (2024) https://dgeconomy.tsue.uz/index.php/dgeco/article/view/197

4. https://newatlas.com/china-ai-education-schools-facial-recognition/54786/

5. https://www.weforum.org/press/2024/04/revolutionizing-classrooms-how-ai-is- reshaping-global-education/

6. https://www.the74million.org/article/shockwaves-innovations-how-nations-worldwide-are-dealing-with-ai-in-education/

7. https://documents.worldbank.org/en/publication/documents-reports/documentdetail/379211551844192053/uzbekistan-education-sector- analysis

8. https://www.nesta.org.uk/report/the-future-of-the-classroom/

9. https://www.mdpi.com/2504-2289/7/1/48

# IV.AMALIY MASHG'ULOT MATERIALLARI

## 1-amaliy mashg'ulot. Google Classroom platformasidan foydalanish asoslari

Ta'limni axborotlashtirish sharoitida "Teskari ta'lim" texnologiyasi elementlarini Google Classroom imkoniyatlaridan foydalangan holda kundalik o'quv amaliyotiga faol joriy etish zamonaviy raqamli jamiyatning yangi talablariga javob beradi va o'quv jarayonini o'quvchilarni o'z bilim va ko'nikmalarini yaratishda faol ishtirok etish deb hisoblash imkonini beradi.

O'z-o'zini o'qitish makonini tashkil qilishning samarali vositalaridan biri LMS – Learning Management System (ta'limni boshqarish tizimi)ning imkoniyatlaridan foydalanishdir. Ko'pgina LMSlar orasida keng qo'llaniladigan kontentlardan biri Google Classroomdir.

Google Classroom – o'quv jarayonini tashkil qilishdagi bulutli platformadir.

Platforma o'qituvchi va o'quvchi (talaba)lar hamkorligiga asoslangan ta'lim jarayonini samarali tashkil qilish imkoniyatini beradi.

Google Classroom o'quv jarayonini tashkil qilishning keng imkoniyatini taqdim etadi: Google Classroom xizmatida avtorizatsiyadan o'tish va o'z o'quv kursini yaratish, fanlar bo'yicha turli kurslarni qo'shish, o'quvchi (talaba)larni sinf (kurs)ga taklif qilish, sinfda topshiriqlar yaratish, baholash va baholangan topshiriqlarni o'quvchi (talaba)larga qaytarish. Google Classroom bilan ham individual, ham jamoaviy turli ta'lim faoliyatini tashkil qilish mumkin. Google Classroom platformasidan foydalanish ta'lim mazmunini yangilashga, pedagogik usullarni kengaytirishga, tabaqalashtirilgan o'qitish texnologiyasini joriy etishga, shuningdek, masofaviy o'qitishni tashkil etishga yordam beradi.

Yangi ta'lim standartlari joriy etilishi bilan, muammolar ham o'zgardi:

talabani individual ta'lim yo'nalishi va o'quv muhitini kengaytirishga yo'naltirishda o'qituvchi uchun taqdim etiladigan materiallar yetarli bo'lmasligi mumkin. Bu shuni anglatadiki, o'qituvchi o'zi muallif va dasturchi bo'lishi kerak. Muammolarni ajratib ko'rsatish kerak:

- o'qituvchi tarmoq xizmatlari bilan ishlashda etarlicha vakolatlarga ega emas;

• o’qituvchilar o’rtasida o’zlari yaratgan mahsulotlarni o’zaro almashish juda kam yo’lga qo’yilgan;

• o’qituvchilardan iborat bo’lgan kichik guruhlarda loyihaviy masalalarni hal qilish tajribasi mavjud. Muammo shundaki, bu o’qituvchilar guruhi doimiy bir xil tarkibdan iborat va hamkorlik uchun boshqa o’qituvchilarni alb qilish imkoni yo’q;

• aksariyat o’qituvchilar o’quv materiallarini ishlab chiqishdagi hamkorlikni yo’lga qo’yishda kam yoki umuman tajribaga ega emaslar;

Ushbu uslubiy qo’llanmaning maqsadi:

• o’qituvchi faoliyatida Google xizmatlaridan foydalanishni ko’rib chiqish;

• Internet xizmatlari va Google Classroom xizmatlaridan foydalangan holda o’quv jarayonini modellashtirish;

• Google xizmatlaridan o’quv guruhlari a’zolari bilan birgalikda foydalanishni ko’rib chiqish;

Qo’llanma asosan, o’qituvchilarga mo’ljallangan bo’lib, Google Classroom bulutli ta’lim platformasidan foydalanishda asosiy ma’lumotlarni taqdim etadi.

GOOGLE CLASSROOM IMKONIYATLARI

Google texnologiyasining mohiyati talabalarni nafaqat ta’lim tarkibini iste’molchilari sifatida, balki uning faol ijodkorlari sifatida o’quvchining pedagogik jarayonning markazida bo’lishiga yordam beradi.

Google korporatsiyasi Internetga ulangan har qanday brauzerdan kirish mumkin bo’lgan ko’plab dasturlar va xizmatlarni ishlab chiqaradi va taqdim etadi. Ta’lim sohasida eng ko’p ishlatiladiganlar quyidagi Google xizmatlari mavjud: Google Calendar − onlayn kalendar, Google Docs − onlayn matn muharriri, Gmail − bepul elektron pochta, Google Maps − onlayn xaritalar to’plami, Google Sites − vikitexnologiyalarni qo’llovchi bepul xosting, Google Translate − onlayn tarjimon ilova, YouTube − videoxosting. Mazkur Google ilovalari talabalar va

o’qituvchilarga samarali muloqot qilish va hamkorlik qilish uchun zarur vositalarni taqdim etadi. Foydalanuvchilarning nuqtai nazari bo’yicha ta’limda Google xizmatlaridan foydalanishning asosiy afzalliklari:

• Texnik ta'minotga minimal talablar (birgina talab − Internet tarmog'iga ulanish);

• Google texnologiyasi maxsus dasturlarni sotib olish va ularga xizmat ko'rsatish xarajatlarini talab qilmaydi;

• Google barcha operatsion tizimlar va mijoz dasturlarini qo'llabquvvatlaydi;

• Googlening barcha ilovalari bepul;

**Google Classroom** ilovasi − o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi fan doirasidagi o'zaro muloqot vositasi hisoblanadi. Google Classroom orqali o'qituvchilar kurslar yaratishi, talabalarga topshiriqlarni yuborishi va ularga izoh berishi, shuningdek, talabalarning fikr-mulohazalarini qabul qilishi mumkin.

**Google Classroom** − LMS sifatida ishlatiladigan dasturlardan biri sanaladi.

Google xizmatidan foydalanish va sozlash juda oson. Barcha ma'lumotlar Google xizmatlarida saqlanadi: videodarslar YouTubeda, elektron darsliklar Google Diskda, kurs ishtirokchilari Google dokumentda o'zlarining yozma ishlarini bajaradilar.

Kurs yaratilib, parol kurs ishtirokchilariga tarqatilgandan so'ng onlan faoliyat boshlanadi. Kursda e'lon, topshiriqlarni qo'shish, savollar berish mumkin (savol talabalarga bir-birlarining javoblariga izoh berish imkoniyatini berib, butun guruh tomonidan muhokama qilinishi mumkin).

**E'lon** − bu Google Drivega fayllarni, YouTubedan videolarni va tashqi manbalarga havolalarni qo'shishingiz mumkin bo'lgan matn. Google Docs formatidagi barcha fayllar bitta nusxada saqlanadi (tinglovchilarga faqat o'qish rejimida ochiladi) yoki har bir foydalanuvchiga o'zgartirishi (tahrirlashi) mumkin bo'lgan nusxasi beriladi. Foydalanuvchi Google Docsda hujatlarni tashkil qilishi (matnli hujjat yaratishi mumkin), shuningdek, onlayn ravishda prezentatsiyalar yoki jadval yaratishi mumkin.

Google Classroom foydalanuvchiga haqiqatan ham qog'ozsiz ishlarga o'tishga, talabalar jamoasini yaxshilashga va talabalar uchun turli xil ko'rsatmalar berishga, vaqtni tejashga, qog'ozni tejashga va sinfning inverter modelini yaratishga imkon beradi. Google Classroom − o'qituvchi yoki talabalar o'quv jarayonidan tashqarida bo'lganlarida foydali vosita bo'lib, ular dars berishda davom etishlari va o'tkazib yuborilgan darslarni davom ettirishlari mumkin.

**Oson sozlamalar.** O'qituvchilar kurslar tashkil qilishi, talabalar va boshqa o'qituvchilarni kurslarga taklif qilishi mumkin. Kurs davomida topshiriqlar, e'lonlar va savollarni joylashtirish juda qulay.

**Qulaylik.** Talabalar topshiriqlarni lentada, kalendarda yoki "Topshriqlar ro'yxat"da ko'rishlari mumkin. Barcha materiallar avtomatik ravishda Google Drivedagi papkalarga joylashadi.

**Samarali aloqa.** Google Classda o'qituvchilar topshiriqlarni yuklashi, e'lonlar yuborishi va muhokamaga qo'yishi mumkin. Shu o'rinda, ishtirokchilar ham o'zaro ma'lumot almashishi, kurs lentasida izohlar qo'yishi va elektron pochta orqali muloqot qilishi mumkin. Taqdim etilgan ishlar haqida ma'lumotlar doimiy ravishda yangilanib boriladi, bu o'qituvchilarga topshiriqlarni tezda tekshirish, baholarni belgilash va sharhlar qo'shish imkonini beradi.

**Ommapob servislar bilan integratsiya.** Google Classroom Google Docs, Calendar, Gmail, Drive va Formalar bilan ishlash mumkin.

**Ochiqlik va xavfsizlik.** Classroom bepul xizmatdir. Unda reklama mavjud emas va talabalar uchun materiallar va ma'lumotlar marketing maqsadlarida ishlatilmaydi.

## GOOGLEDA AKKAUNT OCHISH

**Google Classroomda ishni tashkil qilish uchun sizda Googleda akkaunt bo'lishi kerak.**

**1.** Gmail.com saytiga o'tib, "Создать аккаунт" tugmasi bosiladi. So'ng ***"Для себя"*** tugmasi tanlanadi.




2. Ism -familiyangizni kiriting:




**3.** Pochtangizga yangi ism kiriting.




**4.** 8 belgidan kam bo'lmagan parol kiritib, keyingi qatorga yana shu parolni kiriting va ***"Далее"*** tugmasini bosing. Ahamiyat bering, ***"Подтвердить"*** qatoriga parolni ikkinchi marta doim klaviaturada kiriting. Zinhor ***"копировать""вставить"*** amalini bajarmang! Bu jarayon parolni to'g'ri terilganligini tekshirish uchun bajariladi. Agar parol ikkinchi marta noto'g'ri terilsa, bu haqda tizim sizga ma'lumot beradi.




**5.** Telefon raqamingizni kiriting:




*Telefon raqamingizni kiritayotganingizda, operator kodini va raqamni o'zini kiriting. Masalan: 90 1234567*

**6.** Telefon raqamingizga kelgan 6 ta raqamdan iborat G-****** kod belgilangan qatorga kiritiladi va "Подтвердить" ugmasi bosiladi.




**7.** Navbatdagi bosqichda tug'ilganlik haqidagi ma'lumotlar kiritilib, ***"Далее"*** tugmasi bosiladi:




**8.** Chiqib kelgan oynachani pastga tushirib ***"Принимаю"*** degan tugma bosiladi:




**9.** Pochta yaratildi, endi ishlashni boshlashingiz mumkin!




## GOOGLE CLASSROOMDA KURS YARATISH

**1.** Google Classroomda kurs yaratish uchun dastlab, brauzer orqali akkauntga kirish kerak bo'ladi. Brauzerning manzil qatoriga classroom.google.com manzilini yozgandan so'ng tizim sizdan akkauntga kirishni so'raydi:




**2.** Akkaunt tanlangandan so'ng, Classroom sahifasi ochiladi. Agar foydalanuvchi hali hech qanday kurs yaratmagan bo'lsa, quyidagi oyna hosil bo'ladi:



**3.** Agar kurs yaratuvchi brauzerda akkauntidan chiqmagan bo'lsa, u holda brauzer oynasining o'ng yuqori qismidagi  belgisini bosish orqali ham ishga tushirish mumkin. Hosil bo'lgan ikonkalar menyusidan **Classroom** ikonkasi ustiga bosib, classroom.google.com sahifasiga o'tiladi.




**4.** Oynaning o'ng yuqori qismidagi ***"+"*** belgisi bosilib, ***"Создать курс"*** buyrug'i tanlanadi.




**5.** Berilgan shartlarga rozi bo'lib, ***"Продолжить"*** tugmasi bosiladi.






**6.** Ekranda paydo bo'lgan ***"Создать курс"*** oynasida Kurs nomi kiritilib, tegishli qatorlar to'ldiriladi va ***"Создать"*** tugmasi bosiladi.




**Yaratilgan kurs virtual auditoriyada ochiladi.**




Har bir kurs avtomatik ravishda kod oladi, unga ko'ra, talabalar keyinchalik o'zlarining "virtual auditoriyalarini" topishlari mumkin bo'ladi. Kirish Google Classroomning mobil ilovasida ham Android va iOS uchun mavjud.

Kurs yaratulgandan so'ng unga o'quvchilarni biriktirish uchun ***"Ползователи"*** bo'limiga o'tib, ***"Учащиеся"*** qatoridagi  belgisi bosiladi.




Hosil bo’lgan oynaning tegishli qatoriga qatnashuvchilarning e-mail adreslari yoziladi va kurs kodi ularning elektron pochatalariga yuboriladi.

Shunday qilib, siz Google Classroomda o’z kursingizga ega bo’ldingiz va u bilan ishlashni boshlashingiz mumkin.

## KURSGA MA’RUZA (AMALIY MASHG’ULOT) MATERIALLARINI JOYLASHTIRISH

Google Classroomda ma’ruza, amaliy mashg’ulot materiallari sifatida barcha turdagi fayllarni joylashtirish mumkin. Buning uchun Google Class foydalanuvchiga juda keng tanlovni taklif qiladi. Materiallarni Google Diskdan, Internet manzilga havola berish orqali, komyuterdagi mavjud faylni yuklash hamda YouTube URL-manziliga havola berish orqali joylashtirish mumkin. Buning uchun

***“Лента”*** bo’limidagi ***“Новая запись”*** yozuvi ustiga bosib, hosil bo’lgan qatorga izohlovchi matn kiritib, ***“Добавить”*** tugmasi bosiladi.






Kursda biror faylni biriktirmasdan ham izohlarni e’lon qilish mumkin. Buning uchun tegishli qatorga izoh yozib, ***“Опубликовать”*** tugmasini bosish yetarli.



– Akkaunt egasining Google Diskdagi fayllarini yuklash






– Internetdagi URL - manzilga havola berish






– Kompyuter diskidagi fayllarni yuklash.







YouTube – YouTube videoxostingidagi biror videodars (videoma'lumot)ni qidirish orqali hamda aniq URL -manzilni ko'rsatish orqali yuklash.









Va yuklangan fayllar ro'yxati:




Oxirgi qadam – ***"Опубликовать":***




Talaba ushbu materiallardan foydalanib, mavzuni o’zlashtirishi, yuklab olishi va xohlagan paytda qayta takrorlab borishi mumkin bo’ladi.

## KURSDA TOPSHIRIQLARNI JOYLASHTIRISH

Google Classroom mashg’ulotni yanada samarali qiladi: bu sizga vazifalarni osongina e’lon qilish va baholash, hamkorlikni tashkil etish va jarayonning barcha ishtirokchilarining samarali hamkorligini ta’minlash imkonini beradi. Kurslar yaratish, topshiriqlar berish va talabalar ishini izohlash − bularning barchasini bitta servisda bajarish mumkin.

Vazifalarni yuqorida izohlab o’tilgan bo’limlardan: kompyuterdan, Google Drive bulutli drayveridan, Internet manbasiga havola sifatida URL adresdan qo’shish mumkin. Buning uchun ***“Задание”-“Создать”*** ketma-ketligi bajariladi:




Shundan so’ng o’qituvchiga topshiriqlarning bir nechta turi taklif qilinadi.




Ro'yxatdan ***"Задание"*** tanlangan keyin topshiriq parametrlarini kiritish uchun oyna hosil bo'ladi.




Topshiriq fayllari yuklangandan so'ng, oynaning o'ng tomonidagi kalendar sozlanadi: topshiriq balli, topshiriqning oxirgi muddati (deadline), mavzusi kiritiladi va ***"Создать задание"*** tugmasi bosiladi. O'qituvchi ball sistemasini o'z ixtiyoriga ko'ra, o'zgartirishi mumkin.








– bajarilishi zarur bo'lgan turli tadbirlar, topshiriqlar, videokonferensiyalar, bayramlar haqida ma'lumotlarni qayd etish






_ Classroomda yaratilgan kurs fayllarining Google Disk (Drive)da saqlanadigan papkasi.







**Yaratilgan kurs fayllari Google Driveda *“Classroom”* nomi ostida saqlanadi**

## CLASSROOMDA TEST TOPSHIRIQLARINI YARATISH

Bugungi kunda test o'qvuchi (talaba) bilimini opeativ baholashning eng samarali usuli hisoblanadi. Bundan tashqari, testlar, xususan, onlayn testlar so'rovlar, anketalar, ma'lum bir sohaning reytingini aniqlashda ham qulay vosita hisoblanib, natijalarning tezkorligi bilan boshqa baholash mezonlaridan ajralib turadi.

Google Classroom ham kurs yaratuvchilarga mana shunday imkoniyatni taqdim etib, kursga test joylashtirishning bir necha xil variantlarini taqdim etadi. Ayniqsa, Google Forms yordamida yaratilgan testlar foydalanishdagi qulayligi jihatidan barcha jabhalarda keng qo'llanilib kelinmoqda.

Google Formsdagi har bir shakl veb-sahifa bo'lib, unda **anketa (anketa)** yoki **viktorina (quiz)** joylashtirilgan − tanlovda bir yoki bir nechta ishtirokchilar qatnashadigan va savollarga javob beradigan tanlov hisoblanadi. **Google Forms bilan nimalar qilish mumkin?**

- Turli tadbirlarda onlayn registratsiyadan o'tish;
- Onlayn tadqiqot o'tkazish;
- Fikrlarni jamlash (to'plash);
- Yozma kelishuvlar;
- Ovoz berish;
- Anketa so'rovnomalari va hokazo.

### Google Forms nimasi bilan qulay?

**Foydalanishdagi qulaylik.** Google Forms bilan ishlash MS Word bilan ishlashdan ko'ra qiyinroq emas. Interfeysi qulay va tushunarli. Shaklni yuklab olish, mijozlarga yuborish va pochta orqali to'ldirilgan versiyani qabul qilish shart emas.

**24/7 mavjudlik.** Forma bulutli texnologiya asosida ishlaydi. Agar siz turli xil qurilmalardan ishlasangiz, Google Formsdagi shaklni internet mavjud bo'lgan qurilmalardan xohlagan paytda yuklab olishingiz mumkin.

**Individual dizayn.** Shakl (forma) uchun siz o'z dizayningizni yaratishingiz mumkin. Google Forms sizga bepul bo'lgan ko'p sonli shablonlarni tanlash yoki o'zingizning yuklashingiz mumkin bo'lgan imkoniyatni beradi.

**Bepul.** Xizmatning o'zi bepul. Agar siz to'satdan qo'shimcha plaginlarning kengaytirilgan versiyasiga ehtiyoj sezsangiz, to'lov qilishingiz kerak bo'ladi.

**Mobillik.** Google Forms mobil qurilmalarda ishlaydi. Siz to'liq funksional xususiyatlarga ega bo'lgan smartfonlar yordamida shakllarni telefoningiz va planshetingizda yaratishingiz, ko'rishingiz, tahrirlashingiz va yuborishingiz mumkin.

**Tushunarlilik.** Google Forms javoblar bo'yicha statistik ma'lumotlarni to'playdi va professional ravishda rasmiylashtiradi. Olingan ma'lumotlarni qo'shimcha ravishda qayta ishlashingiz shart emas, darhol natijalarni tahlil qilishni boshlashingiz mumkin.

Javoblar statistikasini diagramma shaklida, to'g'ridan-to'g'ri shaklda va respondentlarning javoblarini avtomatik ravishda yaratilgan Google elektron jadvalidan topishingiz mumkin.

Google Formsdan foydalanib, siz test yaratishingiz, uni kurs ishtirokchilariga yuborishingiz va javoblarni baholashingiz mumkin. Test natijalari to'g'ri javoblar soniga qarab avtomatik ravishda hisoblanadi. Google Forms yordamida yaratish mumkin bo'lgan test savollari turlari:

- Bitta javobli;
- Ikki va undan ortiq javobli;
- Ochiladigan ro'yxat; • Matn (qator).

## Google Forms yordamida Classroomda test yaratish

Classroomda Google Forms orqali test yaratish uchun kursning ***"Задание"–"Задание с тестом"*** ketma-ketligi bajariladi.




